

1-SINF O'QUVCHILARIDA "IJODIY FIKRLASH" KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI.

Murodova Aziza Sobirjonovna

SHDPI 'Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi

Mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Tabiat va insonning uyg'unligi jamiyat rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Biologik va ijtimoiy omillar bolalarning intellektual rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ular asosida o'quvchilarda atrofda olam haqida ilk tasavvurlar shakllanadi. Bolalar olgan bilimlarini mustaqil ravishda amalda qo'llash ko'nikmalariga ega bo'ladi. Bolaning atrofda olamdan olgan ma'lumotlari asosida shaxsiy tasavvurlari shakllanadi [14].

Atrofdagi olam bilan munosabat bolalarda hissiy intellektning rivojlanishiga, voqelikning ro'y berish sabab va oqibatlarini o'rganishga yordam beradi. Masalan, fasllarning o'zgarishi o'simliklar, hayvonlarning o'zgarishiga olib kelishini o'rgatadi.

Bolalarning atrof-muhitga do'stona munosabatda bo'lishi ulardan ekologik madaniyatning shakllanishiga yordam beradi.

O'quvchilarga "ijodiy fikrlash"ni o'rgatish uchun esa ularning tasavvurlarini rivojlantirish lozim. Hech qanday ijodiy mahsulot tasavvursiz bo'lmaydi [3]. Tasavvur ijod natijasini oldindan tasavvur qilish imkonini beradi. U obrazlar (timsillar) bilan ish ko'radi. U obrazlarni o'zgartirish bilan yangi, oldin mavjud bo'lmagan ijodiy mahsulotni tug'ilishini ta'minlaydi. "Oldin ma'lum bo'lmagan narsa to'g'risida o'ylash uchun kuchli tasavvurga ega bo'lish kerak" – degan edi P.Feynman [12]. Tasavvur qilish uchun miyaga ma'lumotlarni idrok beradi. Idrok tashqi olamdan ma'lumotlarni qabul qilib miyada tahlil qilish jarayoni. Atrofdagi ro'y beradigan real voqealar haqida sensor kanallari yordamida olinadigan ma'lumotlarning tahliliga bevosita idrok deyiladi. Verbal, visual yoki boshqa shakldagi ma'lumotlar asosida qilinadigan idrokka bilvosita idrok deyiladi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish muammolari xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan ko'p vaqtlardan buyon o'rganib kelingan, lekin ular o'z ilmiy-tadqiqot ishlarida atrofimizdagi olamni o'rganish jarayonida o'quvchilarning tasavvur va ijodiy fikrlashini rivojlantirishda intellekt xaritadan foydalanish imkoniyatlarini o'rganmaganlar [3].

O'quvchilarga "ijodiy fikrlash"ni o'rgatish ularning tasavvurlarini rivojlantirishdan boshlanadi. "Tasavvur" inson ruhiyatining idrok, fikrlash va xotiralari o'rtasidagi holatida bo'lgan, boshqa ruhiy jarayonlardan farq qiladigan maxsus ko'rinishidir [1].

Tasavvur ko'rgazmali-obrazli fikrlashning asosi bo'lib, amaliy faoliyatsiz ham muammoni yechishga imkon berad. U voqelikni kutilmagan yangi obrazlar orqali aks ettirishdir. Tasavvur ijod natijasida oldindan tasavvur qilish va biror ko'rinishda (verbal yoki vizual) tasvirlashga imkon beradi. Ya'ni, ijodiy mahsulotning vujudga kelishini ta'minlaydi. Tasavvur inson miyasining eng takomil kompyuterga o'xshashligini isbotlaydi. Bu kompyuterda genlar orqali o'tgan ko'plab ma'lumotlar bo'lib atrofda olamdan olinadigan ma'lumotlar ularni uyg'otadi va ular ko'z o'ngimizdan o'tadi. Endi ularni Faqat o'zgalar ham bila oladigan shaklda tasvirlash lozim bo'ladi. Tashqi ta'sir qancha kuchli bo'lsa "kompyuter miyaning" unga reaksiyasi shuncha kuchli bo'ladi. Eynshteynning fikricha tasavvur bilimdan muhimroq. Bilim cheklangan "tasavvur" esa butun olamni qamrab oladi, rivojlanishni vujudga keltiradi. O'quvchida tasavvurni rivojlantirish uchun uni o'ylatadigan, mulohaza yuritishga undaydigan muhitni vujudga keltirish lozim [17].

"Ijodiy fikrlash"ni yaxshilash uchun tasavvurdagi suratlarni chizish, ta'sirli musiqa eshitish, taassurotni bayon qilish, sayohat qilib ko'rganlarini hikoya qilish yaxshi natija beradi.

Tasavvurni rivojlantirishda fantaziyaning roli katta. Fantaziya tasavvurning eng yuqori darajada rivojlanganini ko'rsatadi. Shuningdek tasavvurni rivojlantirish uchun ko'zni yumib xayol surish va ularni bayon qilish yoki suratini chizish yaxshi natija beradi.

Shuningdek tasavvur qilish uchun sensor kanallaridan foydalanish ham yaxshi natija beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari fikrlash nuqtai nazaridan ham katta potensialga ega bo'ladilar. Birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilarida vizual va vizual-timsolli (rolli) fikrlash ustun bo'lsa, uchinchi va tortinchi sinflarda og'zaki-mantiqiy va timsolli fikrlash ustun bo'ladi.

b) Ma'lumotlar qancha yaxshi kodlansa ular xotirada shuncha yaxshi saqlanadi. Odatda mulohaza yuritish, ma'nosini tushunish asosida qabul qilingan ma'lumotlar xotirada yaxshi saqlanadi. Shu nuqtai nazardan ma'lumotlarni vizuallashtirish muhim ahamiyatga ega.

c) Agar yangi ma'lumotlar miyada mavjud ma'lumotlar bilan mos kelsa miya ularni oldingilari bilan solishtirib shu lahzadayoq o'zlashtiradi. Agar mos kelmasa,

ma'lumotlarni qabul qilishning dastlabki lahzalaridayoq vujudga kelgan neyronlar izi o'zgaradi.

d) Qabul qilingan ma'lumotlarni qayta ishlashning so'ngi etapi unutishdir. Miya ma'lumotlarni ahamiyatligiga qarab saralaydi. Ba'zilariga ahamiyat berilmaydi va biz ularni tezda unutimiz.

Miya 3 terabaytdan 1000 terabaytgacha ma'lumotlarni xotirada sig' dira oladi. 900 yillik tarix yozilgan Britaniya milliy arxivi materillari 70 terabaytni tashkil qiladi xolos.

Inson doimo takomillikka, ya'ni teran fikrlashga, xotirasini mustahkamlashga va tanasining sog'lom va go'zal bo'lishiga intilgan. Bular esa miya faoliyatini takomillashtirish bilan bog'liq.

Bosh miya ikkita: chap va o'ng yarimsharlarga bo'linadi [165]. Ular ma'lumotlarni bir tomondan ikkinchisiga uzatadigan tolalar dastasi (qadoqsimon modda) bilan birlashtirilgan. Shuningdek, har bir yarim shar uni qismlarga ajratuvchi 4 ta: peshona, chakka, tepa qism va ensalarga bo'linadi. Ular quyidagi faoliyatlar uchun mas'uldirlar: peshona- nutq, harakat, murakkab fikrlash; chakka qism- eshitish va hid bilish; tepa qism- tuyish va ta'm bilish; ensa qism- ko'rishni (rangni, yorug'likni, harakatni) talqin qiladi.

Birinchi sinf o'quvchilari yoshi (7-8 yoshlar) ijodiy faollikni shakllantirish uchun eng qulay hisoblanib, bu davrda o'quvchilar faol va tabiatga ko'ra qiziquvchan bo'ladilar [2]. Shuning uchun ham ularning ijodiy faolliklarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu yoshlarda o'quvchilarda nostandart fikrlash ko'nikmalari shakllantiriladi. Buning uchun o'qituvchi mashg'ulotda o'quvchini qiziqtirishi, uni ijodiy faoliyatga yetaklovchi muhit vujudga keltirishi lozim. Boshqacha aytganda, ularni ijod qilishga "ijodiy fikrlash"ga o'rgatishlari lozim. Buning uchun "ta'limning faol usullaridan" foydalanish taqozo qilinadi. Bunday mashg'ulotlarda:

- o'quvchilarni fikrlash faoliyatlari rag'batlantiriladi;
- kreativ xususiyatlarning namoyon bo'lishiga imkon yaratiladi;
- ular o'zlariga ishonch hosil qiladilar;
- kommunikativ ko'nikmalari shakllanadi;
- "ijodiy fikrlash" ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Fikrlash biror muammo haqida muayyan bir xulosaga kelish maqsadida mulohaza yuritmoq yoki o'ylamoqdan iborat bo'lgan bilishning psixologik jarayondir.

"Ijodiy fikrlash" – muammoning yechimini topish maqsadida biror yangilikni yaratish maqsadidagi fikrlash. Ijodiy fikrlashning mahsuli oddiy rasmdan haykalchadan tortib yuksak badiiy asargacha bo'lishi mumkin.

Ta'limda ijodiy fikrlash – mavzuning ma'nosini tushinishga yo'nalgan, o'quvchilarning yangi g'oyaga, xulosaga kelishlarini ta'minlaydigan fikrlashdir.

“Ijodiy fikrlash ko'nikmalari” mashq qilish natijasida qo'yilgan muammoni ijodiy yechish usullarini o'lashtirish mahoratidir.

Mantiqiy fikrlash (logic thinking) – sensor kanallari atrofdagi olamdan olinadigan ma'lumotlarni sabab va oqibat zanjiri orqali ongda qayta ishlanishidir. Bu mulohazalar zanjiri o'zgaralar uchun ham tushunarli bo'lib, oxirgi fikr qariyb bir xil bo'ladi. Bunday ko'nikmalarga ega kishilar bilimlarni boricha o'zlashtira oladilar xolos.

Nostandart fikrlash (non standart thinking) mantiqiy fikrlash tarzidan farq qilib noodatiy yo'llar bilan xulosa chiqarish jarayonidir. U muammoni yechishning g'ayrioddiy usullarini topishdir. Nostandart fikrlash aniq bir individga taalluqli bo'lib u uzoq mashq qilishning natijasidir. Bunday ko'nikmaga ega kishilar yuksak intellektual imkoniyatlarga va ilmiy salohiyatga ega bo'ladilar. Nostandart fikrlash ko'nikmalarini ta'lim jarayonida shakllantirish va rivojlantirish mumkin. U kuchli iqtidorni yuzaga chiqarishga yordam beradi.

Fikrlash narsalarning yaxshi tomoni va ularni yanada yaxshilashga qaratilgan bo'lmog'i kerak. O'quvchilarni har qanday vaziyatda ham voqeaning ijodiy tomonlarini topishga o'rgatish lozim. Ijodiy fikrlash ko'nikmalari – qo'yilgan muammoni ijodiy yechish usullarining egallaganligi. Bu sohada orttirilgan mahorat, malaka.

Nostandart fikrlash – tanlangan yo'ldan to'g'ri harakat qilmasdan turli yondashuv va imkoniyatlarni tekshirtirishdir. U ijodga bevosita aloqador. Nostandart fikrlash uchun tasavvur, metafora (istiora), analogiya va intuitsiya muhimdir. Metafora va analogiya ma'lum bir sohadagi g'oyalarni butunlay boshqa sohalarga tadbiq etishga imkon beruvchi usullardir. O'quvchilarga bu usullarni o'rgatish kelgusida ularni nostandart fikrlovchilar bo'lishlarini ta'minlay oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni. O'RQ-637-son. 23.09.2020. – T.: 2020. – 75 b. //https://lex.uz/docs/5013007
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-son Farmoni. www.lex.uz.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019 yil 19 mart kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi "Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish to'g'risida"gi ma'ruzasida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha 5 ta muhim tashabbus. <https://www.pv.uz/uz/news/>

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni. www.lex.uz.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-sonli Qarori. www.lex.uz.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarori. www.lex.uz.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-sonli qarori. www.lex.uz.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 1 apreldagi "Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5047-sonli Qarori. www.lex.uz.

II. Asosiy adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. – 56 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. – 104 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. – 48 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – T.: O'zbekiston. NMIU, 2019. – 400 b.

5. Abduqodirov A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste'dod, 2008. – 180 b.